



BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARIDA KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA O`QITUVCHINING ROLI

Ortiqova Dilsabo Munavvarjon qizi

Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarida kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda o`qituvchining roli, qanday usul va metodlardan foydalanish haqida ilmiy - amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit So`Zlar: O`quvchi, ta`lim, usul, kreativlik, pedagogika, o`qituvchi, qobiliyat, ijodkorlik, fikrlash, erkinlik.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ta`lim sohasida ham bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarida pedagog kadrlarni tayyorlashning yangi tizimi ishlab chiqilib, uzlusiz ta`limda o`qitish sifati va samaradorligini bo`lajak o`qituvchilarning kasbiy, ma`naviy-axloqiy tayyorgarligi belgilab berishi haqidagi qat’iy xulosaga kelindi.¹ Ta`lim sohasidagi tajriba-sinov ishlari shuni isbot etganki, o`quvchilarda mustaqil fikr, ijodkorlik, iqtidor va iste’dod qobiliyatlarni rivojlantirishda, o’z kasbining ustasi bo’lmish pedagoglarga bog’liqdir. O`qituvchi o`quvchi bilan doimiy ravishda ta`lim-tarbiya ishlarini olib borish natijasida ularning intelektual salohiyatlarini oshirib boradi. Bolalar qanday bo’lib tug’ilishi uning ota-onasidan bo’lak hech kimga bog’liq emas. Lekin har bir insonning yetarlicha rivojlanishi, barkamol shaxs darajasiga erishishi, o’ziga yoqqan mashg’ulot va hayotda o’z o’rnini topishi, o’z umrini hayotiy me’yorlarga munosib o’tkazishi avvalo maktabga bog’liq.² Maktab -- bolaning shaxs sifatida tarkib topishida eng katta rol o’ynaydigan maskandir. Bolani ta`limga qiziqtirishda o`qituvchining kreativ qarashlari muhimdir. O`qituvchi bugungi kundagi zamonaviy uzlusiz ta`lim tizimi kreativ yondashuvni talab etadi. Ayniqsa, boshlang`ich ta`lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta`lim turidan biri bo’lib, ta`limning bu bosqichida pedagog o`qituvchilarga katta mas’uliyat yuklatiladi.

Kreativlik so`zini ilk bor 1922-yilda AQSH olimi D.Simpson tomonidan qo’llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta’riflagan. Kreativlik -- shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma’naviyatining ajralmas qismidir, shaxsni o’z-o’zini

¹ Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. O`zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to`plami. -T. 2013.-B.15.

² Mavlyanova R. A Paxmankulova N. X Boshlang`ich ta`limda innovatsiya (metodik qo’llanma) -Toshkent, 2007.
195 s



rivojlantirishda, shaxsiy jonbozlikning asosi bo`lib, shaxs ega bo`lgan bilimlarning ko`p qirrali ekanligida emas, balki yangi g`oyalarga intilishda va o`rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o`zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo`ladi. Kreativlik innovatsiya texnologiyalari bilan bog`liq jabxadir. O`qituvchining kreativlik faoliyatda, o`zining sohasidagi eng so`nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda, butun jamiyatdagi voqeа va hodisalardan boxabar bo`lishi, innovatsion yangiliklarni o`z faoliyatida o`rinli foydalana olishi lozim. Bola shaxsi shakllanishida boshlang`ich sinf davri eng muhim davr hisoblanadi. Boshlang`ich sinf o`quvchilari ishonuvchan, tashqi ta`sirga beriluvchan bo`ladilar. Ularda ijobiy hissiyotlar, fazilatlarni tarkib toptirish, yuksak axloqiy me`yorlarni shakllantirishda asosiy mas`uliyat boshlang`ich sinf o`qituvchisining zimmasiga tushadi.³ Boshlang`ich ta`lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta`lim turidan biri bo`lib, ta`limning bu bosqichida pedagog o`qituvchilarga katta mas`uliyat yuklatiladi. Ya`ni boshlang`ich sinf o`quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o`rganishni talab etmoqda. Demak, boshlang`ich sinf o`qituvchisi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo`lni izlab topishi va uni amaliyatga joriy qilish orqali dars jarayonini samarali tashkil etishi, boshlang`ich sinf o`quvchilari ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko`rinishi deyish mumkin. O`qituvchining kreativligi, ushbu kreativlikning mohiyatini beruvchi ijodkorlik ustuvor xarakterga egadir. Hozirgi kunda ta`lim jarayonini interfaol metodlar va axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o`qituvchining egallayotgan bilimlarini o`zlari qidirib topishga, mustaqil o`rganishga va fikrlashga, tahlil qilishga, hatto yakuniy xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishga o`rgatadi. O`qituvchi bu jarayonda bolani rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta`limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o`yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so`zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo`llanmoqda. Har bir darsda o`qitishning shakl va usullarini darsning maqsadi, mazmuni va o`quvchilarning yosh va individual xusisiyatlarini hisobga olgan holda tanlash, dars davomida o`quvchilar

³ Akramov F.A. Bola shaxsi shakllanishiga boshlang`ich ta`lim o`qituvchisining psixologik ta`siri. Zamonaviy ta`lim/СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ. 2015. 3. -5s.



faoliyatining faol holatda bo'lishiga e'tibor berish ta'lim-tarbiya jarayonini yanada yuqori pog'onalarga ko'tarishga zamin bo'ladi.⁴ Dars jarayonida bu metodlardan foydalanish, topshiriqlarni takrorlash, mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. Bu metodlardan foydalanish, qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining bu metodlarni bajarishga o'rgatilganlik darjasи, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishslash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak. O'quvchilar o`z-o`zidan kreativ bo`lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma`lum vaqt ichida izchil o`qib-o`rganish, o`z ustida ishslash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. O`qituvchilar o'quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o'quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarini o`zgacha yondashuvli ya`ni kreativ bo`lishlariga erishishi mumkin. O`qituvchi o'quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o'quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu o'quvchilarini o`z ustida ishslash, mustaqil o'qib o'rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo'ladi.

«Kreativlik» tushunchasi «ijod» tushunchasi bilan bog`liq. Biroq, «kreativlik» tushunchasi tegishli lug'atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O`nlab ilmiy ishlarda kreativlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o`ziga va na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to`xtam mavjud emas. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik va ijodkorlik aynan bir xil ma`no anglatmaydi degan fikrga keldik. Chunki, ijodkorlik deganda barchaning ko`z o`ngiga ma`lum bir narsani ixtirosi, chizmasi va hokazolar kelishi mumkin. Lekin biz tadqiqotimizda kreativlikni, dars jarayonida berilgan vazifaga hech kimnikiga o`xshamas yo`l topish va uni ilmiy asoslay olish, yangicha fikrlash, uni tadbiq eta olish qobiliyati deb oldik. Ya`ni biz tadqiqotimizda ta`lim sohasiga oid kreativlikni ya`ni boshlang`ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarni kengroq tushuncha degan fikrga keldik.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, hozirda ta'llim tizimida bo'layotgan o'zgarishlar, yoshlar uchun yaratib berilayotgan sharoitlar barchasi o'quvchini kreativ fikrlashga, ijodkor o'quvchi bo'lishga, fan va innovatsiyalarga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

⁴ Mustafaqulova D.I. Tangirova D.E Integrativ yondashuv asosida tabiatshunoslik fanlarining uzviyigini ta`minlash strategiyasi . Zamonaviy ta`lim/ СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ. 2017. 3. -7s



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. O`zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to`plami. -T. 2013.-B.15.
2. Mavlyanova R. A Paxmankulova N. X Boshlang`ich ta`limda innovatsiya (metodik qo`llanma) -Toshkent, 2007. 195 s
3. Akramov F.A. Bola shaxsi shakillanishiga boshlang`ich ta`lim o`qituvchisining psixologik ta`siri. Zamonaviy ta`lim/COBPEMEHHOE ОБРАЗОВАНИЕ. 2015. 3. -5s.
4. Mustafaqulova D.I. Tangirova D.E Integrativ yondashuv asosida tabiatshunoslik fanlarining uzviyigini ta`minlash strategiyasi . Zamonaviy ta`lim/ COBPEMEHHOE ОБРАЗОВАНИЕ. 2017. 3. -7s
5. COBPEMEHHOE ОБРАЗОВАНИЕ. 2017. 3. -7s
6. Mirziyoyev SH. M. Buyuk kelajagimizni mart va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. -T: “O`zbekiston”, 2017, 488 bet
7. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari moduli bo`yicha o`quv-uslubiy Qo`llanma. :- Toshkent 2015,40 bet
8. Aliyev A. O`quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. -Toshkent: O`qituvchi,1991.40bet.